www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

# XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISH OILA VA JAMIYATDAGI MAVQEYINI YUKSALTIRISH MASALALARI.

**To'yeva Muhayyo Shuhrat qizi**

TDPU "Ijtimoiy fanlar" kafedasi stajor-tadqiqotchi o'qituvchisi (O'zbekiston)

m_toyeva@tdpu.uz

**Annatatsiya:** Ushbu maqolada Yangilanayotgan O'zbekistonda ayollarning huquq va erkinliklari, ilimga bo'lgan qiziqishi,ularning hayotdagi maqsad va vazifalari,oila va jamiyatdagi movqeyini oshirish masalalari,davlat va jamiyatning ayollar faolligini oshishi natijasida yanada rivojlanishi,qoloqlik va qashshoqlikning oldini olish.Oilaviy munosabatlarda ham oilalarning yashash sharoiti yaxshilanib ajrimlarning oldini olishimiz va yetim bolalar bo'lmasligi ,ayollarning haq-huquqlari paymol qilinmasligi,hamma tinch va baxtli hayot kechirishi haqidagi ilmiy xulosalarga ega bo'lasiz.

**Kalit so'zlar:** Oila ,jamiyat,gender tenglik, feministik harakat,ziyolilar qatlami,qoloqlik,qashshoqlik,huquqiy ong,huquqiy madaniyat,qur'oni karim,hadisi sharif.

**Аннотация:** В данной статье рассмотрены права и свободы женщин в модернизирующемся Узбекистане, их интерес к науке, их цели и задачи в жизни, вопросы повышения их положения в семье и обществе, дальнейшего развития государства и общества как результат повышения активности женщин, предупреждение отсталости и бедности.В семейных отношениях Вы также будете иметь научные заключения об улучшении условий жизни семей, предотвращении разводов, отсутствии сирот, нарушении прав женщин, и мирной и счастливой жизни всех.

**Ключевые слова:** Семья, общество, гендерное равенство, интеллигенция, отсталость, бедность, правосознание, правовая культура, Коран, хадисы.

**Annotation:** In this article, the rights and freedoms of women in the modernizing Uzbekistan, their interest in science, their goals and tasks in life, issues of increasing their position in the family and society, the further development of the state and society as a result of increasing the activity of women, the prevention of backwardness and poverty. In family relations You will also have scientific conclusions about the improvement of the living conditions of families, the prevention of divorces, the absence of orphans, the violation of women's rights, and the peaceful and happy life of all.

**Key words:** Family, society, gender equality, intelligentsia, backwardness, poverty, legal awareness, legal culture, Quran, Hadith.

O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy muhofazasi, ya'ni huquq va erkinlarini ta'minlash, davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirokini ta'minlash davlat siyosati sifatida hukumat faoliyatini ustuvor faoliyat yo'nalishlarini belgilab berdi. Shu munosabat bilan mamlakat miqyosida demokratik islohotlarning mazmun mohiyati, markaziy va mahalliy hokimiyat tizimining boshqaruv tizimi ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini ta'minlash uchun jamiyatni, siyosiy-iqtisodiy tizimli isloh qilishga, mukammallashtirish Ozod va farovon jamiyat barpo etishda, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, barkamol avlod tarbiyasiga yo'naltirilganligini inobatga olgan holda xotin -qizlar ijtimoiy faolliklarini oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

Xotin-qizlarning ijtimoiy faolligi o'ziga xos milliy, diniy, tarixiy shakllangan mental xususiyatga ega bo'lib, u uzoq vaqt yoki davrni talab etib kelingani hech kimga sir emas. Xotin-

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi xalqaro va milliy norma va mezonlarda ayollarning huquqiy manfaatlarini shakllantirish orqali ijtimoiy-siyosiy faolligini ta’minlanadi. Bu masala bir kunlik targ’ibotlarda o’z maqsadiga erishmasligi aniq. Chunki yillar davomida ayollarning ijtimoiy hayotdagi faoliyati ikkinchi o’ringa yoki umuman bo’lmaganligini inobatga olgan holda nega bunday ayanchli ahvolga tushib qoldik. Barchamizga ma’lumki Uyg’onish davrida ( Renessans ) IX – XII XV asrlarda Yevropa davlatlarida ayollar o’z haq – huquqlarini jamiyat va davlatdan talab qila boshlashdi, ming afsuski bizda hech qanday qo’zg’alish bo’lmadi, ijtimoiy-siyosiy faoliyat haqida o’ylab ham ko’rishmadi.

Ijtimoiy-siyosiy faollik fanlararo tadqiqot predmeti bo‘lib, shaxsning ijtimoiy hayotga obyektiv voqelikka qat’iy munosabati, ruhiy holati, o‘z manfaatlari doirasida umumiy qabul qilingan me’yoriy axloqidir. Ijtimoiy-siyosiy faollik moddiy dunyodan shaxsning o‘z manfaatlarini qondirishda alohida va jamoaviy hamkorligi, birgalikning ijtimoiy haraktchanligi va tashabbuskorlini nazarda tutadi. Shu bois, ijtimoiy siyosiy faollik inson hayotning barcha sohalariga tashqi olamga ta’sirning yuqori emosional shaklidir.

O‘zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi, uni halqaro me’yor va reyting darajasida e’tirof etilishida Birinchi Prezident I. A. Karimovning say-harakatlarini alohida tahlili maqsadga muvofiqdir. Shu munosabat bilan qabul qilingan farmonlar, qarorlar va milliy dasturlarga hukumat boshlig‘ining bu boradagi siyosiy-huquqiy chora-tadbirlariga kiritish mumkin[1]. Bu guruhni o‘z navbatida halqaro me’yor va mezonlarni milliy huquqiy hayotga tadbiq etish uchun ratifikatsiya ishi muhim tashkiliy ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston hukumatining ayollarning ijtimoiy-siyosiy faollashuvi doirasidagi xalqaro andozalarni og‘ishmay amalga oshirishga intilishi tadqiqotchi D. Do‘stmuhammedova “...xalqaro huquqiy me’yorlarning davlat hududida bajarilishi” halqaro huquqiy normalarning milliylashuvi jarayoni “implementatsiya”ning dolzarb ijtimoiy qimmati haqidagi qarashlarini qo‘llab-quvvatlaymiz[2]. Chunki birinchi bosqichda 10dan ortiq halqaro konvensiya va kelishuvlar O‘zbekiston Oliy qonunchilik organida ratifikatsiya qilindi.

Ijtimoiy-siyosiy ahamiyatini tahlil qilish jarayonida milliy taraqqiyotda millatning milliy an’ana va qadriyatlariga sadoqat, boy ma’naviy-milliy merosni milliy barkamollik yo‘lida foydalanish kabi bahsli qarashlar ham jamiyatimizdagi islohatlarning muhim jihati hisoblanadi. Chunki, asrlar bo‘yi milliy-diniy tarbiya ta’sirida bo‘lgan ayol bir-necha o‘n yillikda ham faollik darajasini o‘zida hosil qilolmasligi mumkin. Bu hol ijtimoiy-siyosiy “faollik xotin-qizlarga kerakmi?, deya Z. R. Qodirovaning bergan savolida o‘z ifodasini topadi[3]. Darhaqiqat, olima ming yillar milliy-diniy qobiqdagi ayol jamiyatda o‘zini namoyon qilish uchun ijodiy

[1] Ўзбекистон Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг давлат ва ижтимоий қурилишида хотин—қизларнинг ролини ошириш чора—тадбирлари тўғрисида”ги Фармони,1995 йил 2 март, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Оила кодексини амалга ошириш зарур бўлган меъёрий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида”ги 171—сон қарори(1999 йил 12 апрел), “Хотин—қизларга қўшимча имтиёзлар тўғрисида”ги Қонун (1999 йил 14 апрел), Вазирлар Маҳкамасининг 2002 йил 25 январдаги “Аёллар ва ўсиб келаётган авлод соғлиғини мустаҳкамлашга доир қўшимча чора—тадбирлар тўғрисида”ги 32—сон, “Оилада тиббий маданиятни ошириш, аёлларнинг соғлигини мустаҳкамлаш, соғлом авлод туғилиши ва уни тарбиялашнинг устувор йўналишларини амалга ошириш чора—тадбирлари тўғрисида”ги 242—сон қарори (2002 йил 5 июль), “Ўзбекистонда “Олий Мажлисга сайловлар тўғрисида”ги Қонунда депутатликка номзодларнинг 30 фоизини аёллар учун квоталаш кабиларни назарда тутилмоқда.

[2] Дўстмуҳаммедова Д. Хотин—қизлар сиёсий ҳуқуқларини ҳимоя қилувчи халқаро ҳуқуқий нормаларнинг имплементацияси масаласи// Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. –2006. –№ 3. – Б. 50

[3] Қодирова З. Р. Нужна ли женщинам социальная активность? // Мустақил Ўзбекистон: фалсафа фанларининг долзарб муаммолари –Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ ин—ти. 1999. —Б. 128.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

tashabbuslardan tiyilmay, o‘zining mumina ayol mentalitetidan zamonaviy etuk biznes-ledi darajasiga o‘tish murakkab ma’naviy jarayon hisoblanadi. Chunki, ayol eridan past turish, unga qaramlik, moddiy yordamiga ehtiyojmandligidan o‘zini ijtimoiy-siyosiy tengligini tasavvur ham etolmaydi. O‘zbek ayoli ma’nan oila, farzand, er qurshovidagi milliy-diniy qarashlarda tarbiya topgan insonga aylatirib qo’yishdi, uning jamiyatdagi o’rni va roli haqida gapirmasak ham bo’lardi, hatto ularning o’zlari ehtiyoj sezishmadi yo sabir qilishni munosib topishdi.

Xotin-qizlarning ijtimoiy siyosiy faolligini ta’minlashda o‘zbek jamiyatida islom dinining asosiy ahkomlarida ayolning muqaddaslashtirganligi, muqaddas ilohiy manbalarda ayol ona va qiz, xotin, singil kabi maqomlarda ulug‘lanib, ularga xurmat va e’tibor berishligi kerakiligiga qaramasdan aksincha, erkaklik maqomidan foydalanib ularga zug’um o’tkazishlik, ojizaligidan foydalanib kalatklanishi o’sha erkakning jannatiga kirmasligi, barcha ibodatlari qabul bo‘lmasligi, xotin- qizlarni ranjitish esa Allohga shirk bilan tenglashtirilishi ma’naviy-axloqning bosh tamoyilidir[4]. Afsuski dinni bilaturib ham unga amal qilmay yashayotgan musilmonlar juda ko’pchilikni tashkil etayotganliklari bois, haligacha ayollarimiz o’z mavqelarida emasliklarini ko’ryapmiz.

Mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq bu masala dolzarbligiga e’tibor qaratilganligi O‘zbekiston xotin-qizlar qumitasining ma’lumotlariga ko‘ra, “Sharq ayoli” xalqaro ayollar jamg‘armasi, ”Tadbirkor ayol” ishbilarmon ayollar assotsiatsiyasi, “Hayot uchun” uyushmasi, “Ayollar kengashi” respublika jamoatbirlashmasi kabi xotin-qizlar nodavlat, notijorat tashkilotlari sog‘lom oilani shakllantirishda, ularni huquqiy himoya qilishda, tadbirkor ayollarni qo‘llab-quvvatlashda, qolaversa, ularni kasbiyjismoniy,ma’naviy va intellektual jihatdan o‘stirishda...”[5] ijtimoiy barqaror taraqqiyotning qaror topishiga 200 dan ortiq tashkilotlar samarali ijobiy ta’sir etib kelmoqdalar.

O‘zbekistonda ayollarning ijtimoiy-siyosiy faollashuvi o‘ziga xos tarixiy ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot tendensiyalari va ishlab chiqarishning osiyocha munosabatlari bilan bevosita izohlash joizdir. SHu nuqtai nazardan erkak va ayolning ijtimoiy maqomi va funksiyalari ming yillik ijtimoiy sinovlardan o‘tib kelayotgani, o‘ziga xos ijtimoiy modellashganligini kuzatish mumkin. Biz mazkur modelning mazmun mohiyatiga ta’riflarni olimlarning “Erkak ham, ayol ham Allohning yerdagi halifalaridir, biroq ilohiy komillikning qo‘shimcha jihatlarini bayor qilishda ularning “vazirliklari” turmushning asosiy masalalarida bir-biridan farq qilashdi. Erkak erkakligicha, ayol esa ayol bo‘lib qolishi lozim. Biroq ayollar orasida erkaklar bilan faoliyatning mutlaq teng huquqligini talab etuvchi ortodoksal feminizmga qarshi isyon zuhur bo‘lmoqda”[6], deya ayolning ma’naviy axloqiy qiyofasida o‘zgarish, ayni vaqtda erkakning ham milliy mentalitetiga ta’sir etmay qolmasligi haqidagi qarashlarga qo’shimay ilojimiz yo’q.

Pedagog olima T. K. Narbaeva “Xotin-qizlarning davlat va jamiyat qurilishi va boshqaruvidagi rolini kuchaytirish, ularning siyosiy huquqlarini oshirishga alohida e’tibor qaratilayotgani tufayli ularning jamiyatdagi tutgan o‘rni yuksaldi. O‘zbek ayoli ismi-sharifi yoniga “O‘zbekiston Qahramoni”, “Deputat”, “Senator”, “Vazir”, “Vazir o‘rinbosari”, “Akademik”, “Olima”, “Tadbirkor”, “Direktor” atamalari qo‘shib aytilishi” respublika

[4] Бу ўринда гап Қуръон ва Ҳадислардаги оят ва сураларнинг мусулмонга ёд бўлиб кетгани ҳақида бормоқда.
[5] Акрамова Ш. Қизлар тарбияси – ижтимоий—педагогик ҳамкорлик объекти сифатида// Ўзбекистон Республикасида ёшлар сиёсатини амалга оширишнинг долзарб масалалари. – Т.: Маънавият, 2013. – Б.176.
[6] Рўзиев Р. Аёл ва жамият // Фалсафа ва ҳуқуқ. –2009. № 1. —Б. 2

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

aholisining 50 foizini ayollar tashkil etishi asosida dalillagan[7]. Bu hol ayolning jamiyat hayotida faol yaratuvchi shaxs maqomida faoliyat yuritishi, xotin-qizlarning odat va an'analarida yangicha turmush fe'l-atvorini qadriyatlashuvi aks etganligini tasdiqlaydi.

Davlatimizning ayollarning ijtimoiy-siyosiy faollashuvi ishida yosh avlodni komil inson, barkamol shaxs etib tarbiyalashda respublika hukumatining besh muhim tashabbusi, uning yoshlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, qizlarni yoshlikdan "Tarbiya go'daklikdan boshlanadi" tamoyilida ta'lim-tarbiya o'zgarishlarini maktabgacha ta'lim tizimidan boshlashga e'tibor qaratildi[8]. Davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning ahamiyatini oshib borishi bu o'sha davlatning rijlanib borayotganligidan dalolat beradi. Zero, o'sh davlatning kelajagi o'sib kelayotgan yosh avlodning qo'lida ekan kelajak bunyodkorlarini bugunimizning O'zbekoyim, Nodirabegim va To'marislari tarbiyalaydi. Ayolga e'tibor jamoyatga va davlatga etibor hamdir.

**Foydalanilgan adabiyaotlar ro'yxati.**


1. Ўзбекистон Президентининг "Ўзбекистон Республикасининг давлат ва ижтимоий қурилишида хотин—қизларнинг ролини ошириш чора—тадбирлари тўғрисида"ги Фармони,1995 йил 2 март, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Оила кодексини амалга ошириш зарур бўлган меъѐрий ҳужжатларни тасдиқлаш тўғрисида"ги 171—сон қарори(1999 йил 12 апрел), "Хотин—қизларга қўшимча имтиѐзлар тўғрисида"ги Қонун (1999 йил 14 апрел), Вазирлар Маҳкамасининг 2002 йил 25 январдаги "Аѐллар ва ўсиб келаѐтган авлод соғлиғини мустаҳкамлашга доир қўшимча чора—тадбирлар тўғрисида"ги 32—сон, "Оилада тиббий маданиятни ошириш, аѐлларнинг соғлигини мустаҳкамлаш, соғлом авлод туғилиши ва уни тарбиялашнинг устувор йўналишларини амалга ошириш чора—тадбирлари тўғрисида"ги 242—сон қарори (2002 йил 5 июль), "Ўзбекистонда "Олий Мажлисга сайловлар тўғрисида"ги Қонунда депутатликка номзодларнинг 30 фоизини аѐллар учун квоталаш кабиларни назарда тутилмоқда.
2. Дўстмуҳаммедова Д. Хотин—қизлар сиёсий ҳуқуқларини ҳимоя қилувчи халқаро ҳуқуқий нормаларнинг имплементацияси масаласи// Демократлаштириш ва инсон ҳуқуқлари. –2006. –№ 3. – Б. 50
3. Қодирова З. Р. Нужна ли женщинам социальная активность? // Мустақил Ўзбекистон: фалсафа фанларининг долзарб муаммолари –Т.: Фалсафа ва ҳуқуқ ин—ти. 1999. —Б. 128.
4. Қуръон ва Ҳадислардаги оят ва сураларнинг мусулмонга ёд бўлиб кетгани ҳақида бормоқда.
5. Акрамова Ш. Қизлар тарбияси – ижтимоий—педагогик ҳамкорлик объекти сифатида// Ўзбекистон Республикасида ёшлар сиёсатини амалга оширишнинг долзарб масалалари. – Т.: Маънавият, 2013. – Б.176.
6. Рўзиев Р. Аёл ва жамият // Фалсафа ва ҳуқуқ. –2009. № 1. —Б. 2
7. Нарбаева Т. К. Таълим муассасаларида таълим ва тарбия уйғунлигини таъминлашда хотин—қизларнинг ўрни//Хотин—қизлар ижтимоий—сиѐсий фаоллигини ошириш – мамлакатимизда амалга оширилаѐтган ислоҳотларнинг муҳим омили. –Т.: ТДИУ, 2019. —Б. 5.


[7] Нарбаева Т. К. Таълим муассасаларида таълим ва тарбия уйғунлигини таъминлашда хотин—қизларнинг ўрни//Хотин—қизлар ижтимоий—сиѐсий фаоллигини ошириш – мамлакатимизда амалга оширилаѐтган ислоҳотларнинг муҳим омили. –Т.: ТДИУ, 2019. —Б. 5.

[8] МирзиёевШ. М.. Билимли авлод – буюк келажакнинг, тадбиркор халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидир. – Т.: Ўзбекистон. 2019, —Б. 18.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 1, Issue: 2, 2023

8. МирзиёевШ. М.. Билимли авлод – буюк келажакнинг, тадбиркор халқ – фаровон ҳаётнинг, дўстона ҳамкорлик эса тараққиётнинг кафолатидир. – Т.: Ўзбекистон. 2019, —Б. 18.